



XALQARO KREDIT LINIYALARI VA ULARNI KICHIK BIZNESNI  
RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI, RAQAMLASHTIRISH (SURXONDARYO  
VILOYATI MISOLIDA).

**Lola Abdugabbarovna Djurayeva**

*Termiz Davlat Universitetii*

[lola@tersu.uz](mailto:lola@tersu.uz)

**Annotatsiya:** Xalqaro kreditlar, asosan, kredit liniyalari ochish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining investitsiyaviy xarajatlari moliyalashtirilmoqda. Bitta kredit shartnomasi doirasida xorijiy valyutada bir nechta kredit olish mumkinligi xalqaro kreditlarni jalb etishning muhim afzalliklardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** kredit, kichik biznes, investitsiya, raqamlashtirish, rivojlanish.

**Kirish.** Mamlakat kichik biznesini qo'llab- quvvatlashdagi ahamiyati, shubhasiz, sezilarli iqtisodiy ahamiyatga molikdir.

1-jadvaldan ko'rinadiki, xalqaro kreditlarning miqdori kichik biznes subyektlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirish imkonini beradi. Xalqaro kreditlar kamida 250 ming yevro miqdorida berilmoqda. Shuningdek, imtiyozli davrning mavjudligini ham xalqaro investitsion kreditlardan foydalanish samaradorligini ta'minlash nuqtai nazaridan ijobiy baholash mumkin.

Ammo kichik biznes subyektlarining investitsion xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida jalb etilayotgan xalqaro kreditlarning foiz stavkalari yuqori. LIBIDning yillik darajasi 3,5-4,0% bo'lib turgan sharoitda respublikamizga jalb etilayotgan xalqaro kreditlarning foiz stavkalari 10-12% bo'lishi uning juda yuqori ekanligini ko'rsatadi<sup>7</sup>. Bu esa, xalqaro kreditlardan foydalanish jozibadorligiga salbiy ta'sir etadi. Sababi, foiz stavkasi kreditning bahosi hisoblanadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Xalqaro kreditlarning o'z vaqtidaqaytishini ta'minlash bevosita kichik biznes subyektlari pul oqimining barqarorligiga bog'liq. Pul oqimi barqaror bo'lmasa, kreditning qaytmaslik ehtimoli ortadi. Natijada, tijorat banklari subqarzdor sifatida xalqaro

<sup>7</sup> Ayupov R.X., Baltabaeva G.R., G'ulomov S.S. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. 161-bet.



kreditni muddatidan oldin qaytarishga majbur bo'radi. Bunda bank zarar ko'rishini mumkin. Buning sababi shundaki, talabga javob beradigan yangi investitsion loyihabo'lmasa, qaytarilgan xalqaro kreditni xorijiy banklarga LIBOR stavkasi bo'yicha joylashtirishga to'g'ri keladi. Natijada bank xorijiy bankning marjasi miqdorida zarar ko'radi.

Kichik biznes subyektlarining to'lovga qobilligini baholash xalqaro kreditlarni o'z vaqtida va to'liq qaytarilishida muhim o'rin tutadi. Shu sababli, xorijiy kredit liniyasini qabul qilib olgan respublikamiz tijorat banklari kichik biznes subyektlarining to'lovga qobilligini baholashga jiddiy e'tibor qaratishlari lozim. Chunki, xalqaro kreditni kichik biznes subyekti qaytara olmay qolgan taqdirda, u kredit liniyasini qabulqilib olgan mamlakat banki tomonidan xorijiy bankka qaytariladi.

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.** Taraqqiy etgan mamlakatlarning bank amaliyotida kichik biznes subyektlarining to'lovga qobilligini baholashda asosiy e'tibor ular umumiy pul oqimining yetarliligiga qaratiladi. Bunda kichik biznes subyektlarining umumiy pul oqimi pul mablag'lari kirimi va chiqimi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Uning yetarliligini baholash uchun umumiy pul oqimi kichik biznes subyektlarining jami qarz majburiyatlari summasiga bo'linadi. Agar ushbu ko'rsatkich 0,30 dan past bo'lmasa, xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimi yetarli, deb hisoblanadi.

1-jadval

**1-jadval. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining investitsion xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida jalb etilgan xalqaro kreditlarning shartlari<sup>8</sup>**

Kredit bergan xorijiy muassasa	Kredit miqdori	Kredit muddati	Kreditning yillik % stavkasi
Osiyo taraqqiyot banki	Kreditning maksimal miqdori 1,5 mln. AQSh dollari	5 yilgacha (imtiyozli davr - 3 oy)	10,5% - 12,0%
Kommersbank (Germaniya)	Kreditning maksimal miqdori 500 ming yevro	5 yilgacha (imtiyozli davr - 1,5 yilgacha)	EVRIBOR + marja (1,95%) + bank marjasi (3%)

<sup>8</sup> Jadval O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



Landesbank (Germaniya)	Kreditning minimal miqdori 250 ming yevro	10 yilgacha (imtiyozli davr – 3 yil)	EVRIBOR + marja (2,0%) + bank marjasi
“KfV” bank	Kreditning maksimal miqdori 400 ming yevro	3 yilgacha (imtiyozli davr – 6 oy)	12%
Xususiy sektorni rivojlantirish Islom korporatsiyasi	Kreditning maksimal miqdori 500 ming AQSh dollari	5 yilgacha (imtiyozli davr – 1 yil)	12%

Qayd etish joizki, kichik biznes subyektlarining xalqaro kreditlarni qaytarish ehtimoli moliyaviy risklarga ham bog‘liq bo‘lib, inflyatsiyaning kuchayishi, milliy valyutaning qadrsizlanishi xalqaro kreditlarni qaytarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajat-larning ortishiga olib keladi. Shu sababli, xalqaro kreditlardan foydalanish samara- dorligini ta’minlash makrodarajada aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Kreditlar qay turdagi foiz stavkalarida olinganligi xalqaro kreditlardan foyda- lanish samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Kichik biznes subyektlari uchun xalqaro kreditni qat’iy belgilangan foiz stavkala- rida olish qulay. Chunki, xalqaro ssuda kapitallari bozorida xalqaro kreditlarning foiz stavkalari o‘zgarishidan qat’iy nazar belgilangan stavkada foiz to‘lanadi.

Xalqaro kredit chayqaluvchi stavkada berilganda uni qaytarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning oshib ketish xavfi yuzaga keladi. Odatda, xalqaro kreditlarga bo‘lgan talab oshganda yoki ularga bo‘lgan talab o‘zgarmay qolgan sharoitda depozitlar taklifi kamay- ganda xalqaro kreditlarning bahosi oshib ketadi.

Xorijiy banklar har doim xalqaro kreditlarni chayqaluvchi stavkalarda berishdan manfaatdordir. Chunki, bunda xalqaro kreditning foiz stavkasi o‘zgarishidan qat’iy nazar bank oladigan daromad, ya’ni marja o‘zgarmasdanqoladi.

Kichik biznes subyektlarining investitsion xarajatlarini moliyalashtirishda, xalqaro amaliyotda, xalqaro lizing kreditlaridan keng foydalaniladi.



Ammo respublikamizda milliy valyutaning devalvatsiya bo'lishining davom etayotganligi natijasida xorijiy valyutalarda berilayotgan xalqaro lizing kreditlarini qaytarishda muammolar yuzaga kelish ehtimoli yuqori.

Tijorat banklarining birlamchi vazifasi mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishdir. "O'zbekiston Respublikasining 2020-2025 yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi"da zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun zarur shart- sharoitlar yaratish maqsadida tijorat banklarini korporativ transformatsiya qilish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sohasida asosiy vazifalar belgilab olingan:

- masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan, kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish;
- avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyerlaridan keng foydalanish;
- bank ma'lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish;
- bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni keng joriy qilish (fintex, raqamli bank).

Ma'lumki, banklar taqdim etayotgan xizmat turlari kundan-kunga yangilanib, takomillashib bormoqda. Bu yangi innovatsion g'oyalarga asoslangan bank mahsulotlari yaratilishi maqsadida tinimsiz izlanishlar olib borish va yuqori sifat darajasida mijozlarga xizmat ko'rsatishni taqozo etadi.

O'zbekiston bank tizimining bugungi taraqqiyot tamoyillari bank infratuzilmasini kengaytirish, masofadan identifikatsiya qilish (e-ID va e-KUC), masofadan bank xizmatlarining funksional imkoniyatlarini kengaytirish, QR-kod asosida to'lovlarni amalga oshirishni rivojlantirish, kichik biznes subyektlariga mo'ljallangan zamonaviy kredit mahsulotlarini yaratish, banklarning skoring modellarini takomillashtirish hisoblanadi.

**Xulosa va munozara.** Xulosa qilib aytganda, kichik biznes subyektlarining investitsiyaviy xarajatlarini moliyalashtirishda xalqaro kreditlar muhimo'rin tutadi. Shu bilan birga, xalqaro kreditlarni jalb qilish va o'zlashtirish samaradorligini ta'minlash aniq chora-



tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Ushbu amaliyotlarni Surxondaryo viloyati banklarida qo'llash ham muhim ahamiyatga ega.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bankovskoe del. Uchebnik. Pod red. prof. O.I. Lavrushina. – M.: Knorus, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.
4. King B. Bank 4.0. Banking everywhere, never at a bank. Marshall Cavendish, 2018. – 347 p.
5. Peter C. Verhoef, et al., "Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda" Published in Journal of Business Research, November 2019.
6. Abdugabbarovna, D. L., & Tokhtayevich, E. S. (2024). Peculiarities of increasing the income of the population in the region. Open Access Repository, 10(1), 74-77.
7. Abdugabbarovna, D. L., & Samandarovich, I. E. (2024). Improvement of the organizational and legal basis of microfinancing of small business and private entrepreneurship. Open Access Repository, 10(1), 65-68.
8. Abdugabbarovna, D. L., & Abdurashidovich, A. O. (2024). The role of small business and private entrepreneurship in ensuring the employment of the population and increasing their income. Open Access Repository, 10(1), 54-57.
9. Abdugabbarovna, D. L. (2024). Peculiarities of small business and private entrepreneurship development. Open Access Repository, 10(1), 50-53.
10. Abdugabbarovna, D. L., & Choriyevena, S. N. (2023). The role of investment and preferential loans in the development of small business entities. Open Access Repository, 9(11), 35-38.
11. Ogli, X. J. X., & Abdugabbarovna, D. L. (2022). Qishloq xojalik korxonalarini davlat tomonidan qollab quvvatlashning iqtisodiy asoslarini takomillashtirish (Surxondaryo viloyati misolida). Ta'lim fidoyilari, 3.
12. Ergashevich, A. A., & Abdugabbarovna, D. L. Kichik biznes subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning tasniflanishi va ozbekistondagi investitsion jarayonlar.